

RAHBARNING TINGLASH MAHORATI

Boboxodjaev Rashidjon Xashimovich,

Toshkent davlat transport universiteti,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

“Tahririy nashriyot va poligrafiya” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbar shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalardan biri — tinglash mahorati tahlil qilinadi. Muomala jarayonida rahbar xodimlar bilan samarali aloqa o‘rnatish, ularni diqqat bilan tinglashi va bu orqali ish jarayonida ishonch muhitini yaratishi ta’kidlanadi. Ijtimoiy psixologiya va boshqaruv psixologiyasi nuqtai nazaridan, tinglash — rahbarda rivojlantirilishi shart bo‘lgan asosiy kommunikativ mahoratlardan biri ekanligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada rahbarning tinglash madaniyati va ta’sirchan muomalasi orqali tashkilot ichida samarali munosabatlar yuzaga kelishiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Rahbar, tinglash mahorati, boshqaruv psixologiyasi, muomala madaniyati, aloqa, ijtimoiy psixologiya

Annotation: This article analyzes one of the essential skills necessary for effective leadership — the skill of listening. It emphasizes the importance of a leader's ability to establish effective communication with employees, actively listen to them, and thereby foster a culture of trust in the workplace. From the perspective of social and management psychology, listening is presented as a fundamental communicative competence that a leader must develop. The article also highlights how the leader's listening culture and persuasive communication contribute to efficient interpersonal relations within an organization.

Keywords: leader, listening skills, management psychology, communication culture, interaction, social psychology

Rahbar o‘zining kundalik amaliy faoliyati davomida turli ijtimoiy uchrashuvlar, suhbatlar, munosabatlarning ishtirokchisi bo‘ladi. Shu boisdan kaysi uchrashuv yoki suhbatlarning rahbar barga muhim bo‘lib ko‘rinishiga karab rahbarning muomala madaniyatini o‘rganish mumkin. Juda ko‘pchilik tajribali rahbarlar xodimlar bilan til topishish, muomalada ta’sir ko‘rsatish, ularning mehnatini to‘g‘ri tashkil kilish va

boshkarish rahbar- ning eng murakkab munosabatlaridan biri ekanligini e'tirof etmoqdalar. Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyaning tatbikiy yo'nalishida, boshkaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni tinglash va muomala qilish madaniyatiga o'rganish, ularda zarur kommunikatsiv (aloka qilish) malakalarini hosil qilishga katta ahamiyat berilmokda. Turli tarmoqlarga mansub, korzona, xususiy firma, davlat muassasalari yoki boshqalarning boshqaruvchi rahbarlarini tayyorlash muammosi bugungi kunda ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jih_ atdan rahbarlik salohiyatiga tayyorlash muhim vazifa- lardan biriga aylandi. Shuning uchun hozirgi davrda qanday rahbar bo'lishdan qati nazar, u rektor, direktor, boshqarma boshlig'i yoki boshqa soha rahbarlari kommunikatsiv malakalar- ga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamo- aga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Lekin har bir ziyoli rahbar sifa- tida boshkalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlarning biri gapiradi, ik- kinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki shaxsning kanchalik o'zaro bir-biriga mosligi, bir-bi- rini to'ldirishiga bog'liq bo'ladi. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamlarni muomala yoki mulokotga o'rgatganda, uni fa- kat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni—tinglash kobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur ameri- kalik notiq psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh yaxshi ga- pirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suh- batdoshdir» deganda aynan shu krbiliyatlarning insonlardari- vojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. «Rahbarning tinglash mahorati masalasini bugungi kunda hayotning o'zi har qachongi- dan ham dolzarb vazifaga aylantirib qo'ymoqda»,—deydi psi- xolog V. Karimova . Mutaxassislarining aniqlashicha, rahbar odamlar vaqtining 45 foizini kimlarnidir tinglashga sarf qilar ekan. Odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladigan rah- barlar bosh mutaxassislar, ish boshqaruvchilar va boshqarma boshliqlari 35-40 foizi oylik maoshlarini odamlarni tingla- ganlari uchun olarkanlar, bundan shunday xulosa kelib chiqadi- ki, muomala qilishning eng qiyin sohalaridan hisoblangan rah- barning

tinglash mahorati rahbarning shakllanishiga, muloha- za salohiyatining o'sishiga ko'proq foyda keltirar ekan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A.Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan.

Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu suhbatdopshngiz sizni tinglamasa, undan ranjiysiz, balki u bilan qayta gapla- shishni istamaysiz. Jamoaning a'zosi gapiraetgan paytda rah- bar uni tinglamasa, odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rini- shi deb baholanishi mumkin. Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapi- ruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. «Aslida yonimizda gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutlaq hokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas, —deb ta'rif beradi psixolog V.Karimova o'z tadqiqotida. — Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchini tug'diradi».

Chunki tinglayotgan odam ma'noli, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshidan «teskari aloqa- ni» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin Shuning uchun muloqotda o'zgarishning muhim yo'nalishlari- dan biri odamlarni faol tinglashga, tinglash mahoratining omillaridan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir. Agar rahbar suhbatdoshni yaxshi, diqqat bilan tinglasa, bu bilan u o'z-o'ziga hurmatini ham tarbiyalaydi. Demak, rahbarning tinglash maho- rati ko'nchilik tasavvur kilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlanti- radi, uni ruhlantiradi. Yangi fikrlar, g'oyalarning shakllani- shiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham rahbarning jamoa yi- g'inlarida har bir chiqishi va gapirish mahorati, agar tinglov- chilar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu psixologik mulo- qotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Xullas, har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning inso- niy qiyofasi, fazilatleri, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan

odam o'zida individ sifat- larini saqlab qolishi mumkin, lekin u to'laqonli shaxs bo'la olmaydi.

Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalari (vazifalari)ni, biz- ning hayotimizda bajaradigan fazilatlarini! tahlil qilib bo- rishzamonaviy rahbaruchun naqadar zarur ekanligini anglash juda muhimdir.

References:

1. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области //Современные проблемы филологии. – 2020.
2. Babaxodjayev R. Проблемы славянской лексикологии и фразеологии //славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования. – 2017.
3. Бобоходжаев Р. Х. Применение интерактивных методов при дистанционном обучении русскому языку //Uzbek scholar journal. – 2022. – т. 10. – с. 179-182.
4. Boboxo'Jayev R. H. Learning foreign languages online //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 840-845.
5. Суюнова Д.Д. Научно-теоретический подход к реализatsii цифровой трансформatsii внедрения корпоративного управления в акционерных обществах. (Актуальные проблемы развития бизнеса и предпринимчивости в условиях цифровой экономики, международная научно-практическая конференция, 23 декабря 2022 г.).
6. Суюнова Д.Д. Анализ состояния внедрения и развития цифровой экономики в Узбекистане. (Цифровая трансформatsiya в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).
7. Суюнова Д.Д. Пути использования автоматизированной информatsionной системы управления в обеспечении эффективности корпоративного управления. (Цифровая трансформatsiya в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, 21 июня 2023 г.).
8. Суюнова Д.Д. Использование цифровых технологий в совершенствовании корпоративного управления. (Цифровая трансформatsiya в бизнесе и экономике, международная научно-практическая конференция, январь 2024 г.).

9. Babaxodjayev, Rashid. "Некоторые методологические вопросы терминологии." учебная терминосфера по избранной специальности сборник материалов научно-практического семинара (2010).

10. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области //Современные проблемы филологии. – 2020.

11. Babaxodjayev R. Русский пласт в гидронимии Ташкента и Ташкентской области //Современные проблемы филологии. – 2020.

12. Babaxodjayev R. Проблемы славянской лексикологии и фразеологии //славянские языки: системно-описательный и социокультурный аспекты исследования. – 2017.

13. Бобоходжаев Р. Х. Применение интерактивных методов при дистанционном обучении русскому языку //Uzbek scholar journal. – 2022. – т. 10. – с. 179-182.

14. Boboxo'Jayev R. H. Learning foreign languages online //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 840-845.

15. Суюнова Д.Д. Корпоративное управление в акционерных обществах: пути использования цифровых технологий для улучшения управления